

## **TO'G'RI CHIZIQ KESMASINI BERILISHI VA UNI O'ZGARTIRISH USULI**

N.S. Yusupova (Assistant),

O.O.Ganiyev (assistant),

B.R.Teshaboyev (Magistr).

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Muxandislik va kompyuter grafikasi fanidan metrik va pozitsion masalalarni yechimini aniqlashda, ba'zi bir geometrik tushunchalar ya'ni, yasashlarni bajarish va ularni ketma-ketlik bilan aniqlash uslublarini bajarib, natijani aniqlab, taxlil qilish zarur bo'ladi. Muxandislik va kompyuter grafikasi fanining tarkibiga kiruvchi fan bu, chizma geometriya.Bunda asosan proeksiya tekisliklarida to'g'ri chiziqlar yoki tekisliklarning berilishi umumiylashtirilishi hamda hususiy vaziyatda bo'ladi. Grafik savodxonlikni oshirish uchun, ba'zi masalalarni yechimini soddallashtirishda proeksiya tekisligida berilgan umumiylashtirilishi to'g'ri chiziq kesmasini gorizontal,frontal yoki profil proeksiya tekisliklariga parallel yoki perpendikulyar holatga keltirishda turli uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Masalan, proeksiya tekisligida turli vaziyatda berilgan to'g'ri chiziq kesmasini tahlil qilsak, yanada soddaroq qilib, umumiylashtirilishi to'g'ri chiziq kesmasini frontal yoki gorizontal atrofida aylantirib,haqiqiy kattaligini aniqlah kerak bo'ladi. Aniqlangan to'g'ri chiziq kesmasiga nisbatan ma'lum masofa uzoqlikda parallel qilib tekislik yoki to'g'ri chiziq kesmasi o'tkazish mumkin.Bu kabi turli masalalar o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantiradi, grafik ko'rinishni fikran aniqlay olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Har qanday shakllarni biror tekislikda tasvirlash asosiy geometrik tushuncha hisoblanadi. Chizma geometriyada to'g'ri chiziqlarning yoki proeksiya tekisliklaridagi shakllarning fazodagi turli vaziyatlarini tahlil qilish, ularni amaliyatga bog'lay bilish va boshqa masalalar juda ko'p uchraydi. Masalan proeksiya tekisliklarida to'g'ri chiziqning umumiylashtirilishi, ba'zi bir masalalarni yechimini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi.[1]

Umumiylashtirilishi berilgan shakl ya'ni to'g'ri chiziqning berilishi, proeksiya tekisliklariga nisbatan o'zining o'lchamidan kichik bo'lib, qisqarib proeksiyalanadi. Shuning uchun, noqulay vaziyatda berilgan to'g'ri chiziqlarni qulay vaziyatga keltirish uchin, ortogonal (ya'ngi proeksiya tekisligi)



proeksiyalarni qayta tuzish usullaridan foydalanish, masalani yechimini aniqlashda bizga ko'mak bo'ladi. Demak fazodagi berilgan tasvirni qayta tuzib, qulay holatga keltiramiz.[2]

Umumiy vaziyatda berilgan har qanday geometrik shakllarni, fazoda harakatlantirib, proeksiya tekisliklariga nisbatan xususiy ya'ni, qulay vaziyatga keltirish mumkin. Bunda asosan proeksiya tekisliklarida shaklni aylantirish, almashtirish yoki parallel ko'chirish usullari bilan metrik va pozitsion masalalarni aniqlash mumkin. Ammo, barcha geometrik shakllarni qayta tuzish masalasini bajarishda, asosiy proeksiya tekisliklari mutlaqo (H,V,W) o'zgarmaydi.[4]


Ushbu masalada AB to'g'ri chiziq kesmasi proeksiya tekisligiga nisbatan ixtiyoriy burchak hosil qiladi. Bu to'g'ri chiziq kesmasini aylantirish usuli bilan proeksiya tekisligiga parallel holatga keltirilsin. AB to'g'ri chiziq kesmasini frontal ( $F_H$ ) chiziq atrofida aylantirib shu tekislikka parallel holatga keltiriladi, va 3,19sm masofa uzoqlikda shu to'g'ri chiziqqa parallel tekislik o'tkazish masalasi so'rалган.(1-rasm)

### Masalani yechimini quyidagicha belgilaymiz:

1. AB to'g'ri chiziq kesmasini frontal chiziq ( $F_H$ ) atrofida aylantiramiz.
2.  $A_H, B_H$  kesmadan OX o'qiga parallel qilib,(ixtiyoriy masofada) frontal ( $F_H$ ) chiziq o'tkazamiz.
3. Kesib o'tgan nuqtani  $K_H$  bilan belgilab, uning frontal proeksiyasi  $K_V$  ni aniqlaymiz.

Bu yerda:  $F_H$ —frontalning gorizontal proeksiyasi;

$F_V$ —frontalning frontal proeksiyasi deb o'qiladi.



1-rasm

4. Frontalning frontal proeksiyasiga  $A_V$  nuqtadan perpendikulyar ( $\perp$ ) qilib chiziq tushiramiz.

5. kesib o'tgan nuqtani  $m_V$  bilan belgilab, uning proeksiyasi  $m_H$  nuqtani aniqlab olamiz.

6.  $A_V$  va  $m_V$  perpendikulyar chiziqning haqiqiy uzunligini aniqlash uchun, to'g'ri burchakli uchburchak usulidan foydalanamiz.

7.  $A_H$  dan  $m_H$  gacha bo'lган masofani ( $\Delta Y$ ) o'lchab,  $A_V$  va  $m_V$  masofaning katet o'lchamiga qo'yamiz va hosil bo'lган  $A_V$ ,  $A_O$  qiymatni belgilaymiz. Bunda  $A_V$ ,  $A_O$  va  $m_V$  to'g'ri burchakli uchburchakni hosil qiladi.

8. To'g'ri chiziq kesmasini  $B_V$  tomonini ham  $90^\circ$  ga burib olamiz.  $B_V$ ,  $n_V$  nuqtalarni belgilab olamiz hamda gorizontal  $n_H$  nuqtani aniqlaymiz. aniqlangan  $A_O$  nuqtani haqiqiy uzunligini sirkul yordamida  $m_V$  nuqtani markaz qilib olib, perpendikulyar chiziq davomida, ya'ngi  $A_V^1$  nuqtani hosil qilamiz.

9.  $A_V^1$  nuqta bilan  $K_V$  nuqtani tutashtiramiz,  $B_V$  nuqtadan frontalning frontal proeksiyasiga tushirilgan perpendikulyar chiziq bilan kesishguncha. Masalamizda hosil bo'lган to'g'ri chiziq  $A_V^1$ ,  $B_V^1$  kesmasi, umumiyo vaziyatda berilgan  $A_V$ ,  $B_V$  to'g'ri chiziq kesmasining haqiqiy kattaligi (uzunligi) hisoblanadi ya'ni, frontal proeksiya tekisligiga parallel holatga keltirildi.  $A_V^1$ ,  $B_V^1 \parallel V$ . [1]

10. Navbatda  $A_V^1$ ,  $B_V^1$  to'g'ri chiziq kesmasiga 3,19sm. Masofa uzoqlikda parallel  $P_V$ ,  $P_H$  tekislikning izlari o'tkaziladi. Ya'ni  $A_V^{11}$ ,  $B_V^{11} \parallel P_V$ ,  $P_H$ .

Proeksiya tekisliklarida to'g'ri chiziq kesmasi va izlari orqali berilgan tekisliklar turli korinishlarda beriladi. Lekin har qanday masalalarni yechimini aniqlashda masalani berilish sharti bir xil va bajarish uslubi hamda ketma-ketligi ham deyarli bir hil bo'ladi. Ammo to'g'ri chiziq kesmasi proeksiya tekisliklariga nisbatan turli ko'rinishlarda beriladi.

Bu bilan, o'quvchilarga nazariy va amaliy bilim berish, tanlangan soha bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini oshirib boradigan, barcha masalalarga ijodiy yondasha oladigan mutaxassis kadrlar yetishib chiqishiga imkon yaratiladi. [3]

Xulosa qilib aytganimizda chizma geometriya fanini chuqurroq o'rganish bu injenerlik sohasidagi barcha mutahassislar uchun zarurat deb bilamiz. Chunki, muxandislik grafikasini chuqurroq va mukammal o'rganish uchun, o'quvchilarga fazoviy tasavvur, ziyraklik, ko'ra bilish qobiliyati hamda grafikaviy savodxonlikni o'zida jamlash zarur bo'ladi. Tekislikda shakllarni tasvirlash uchun nuqtadan

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> May, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

boshlab, to'g'ri chiziq, tekislik, egri chiziq, egri sirt, aylanma sirt va ko'pyoqlarni fazoviy vaziyatlarini tasvirlash va ularning qonuniyatları hamda ketma-ketlik bilan bajarish vazifalarini o'rghanish muhimdir.

### **Adabiyotlar**

1. Murodov SH., L.Hakimov, A.Xolmirzayev. Chizma geometriya.-T.: "TOSHKENT IQTISOD-MOLIYA", 2008.
2. Чекмаров А.А. Начертательная геометрия и черчение.. 2002 й.
3. S.S.Saydaliyev Chizma geometriya va muxandislik grafikasi. -T., 2017.
- 4.U.T.Rixsiboyev,D.F.Kuchkarova,Ch.T.Shakirova,X.M.Rixsiboyeva.Chizma geometriya va muxandislik grafikasi. T. TAFAKKUR QANOTI, 2019.